



XORIJIY KREDIT LINIYALARINI JALB QILISHNING KREDITLASH JARAYONIDAGI AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF ATTRACTING FOREIGN CREDIT LINES IN THE LENDING PROCESS

¹Narimonov Sayfullaxon
Sunatillo o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Xalqaro moliya"
kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD.

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada tijorat banklarida xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish va ulardan foydalanish jarayonining nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan. Xorijiy kredit liniyalarining iqtisodiy mohiyati, ularning kreditlash jarayonidagi ahamiyati hamda asosiy turlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda 2020-2024-yillar davomida davlat kafolati ostida jalb qilingan kredit liniyalari dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Eng. - This article studies the theoretical and practical aspects of the process of attracting and using foreign credit lines in commercial banks. The economic essence of foreign credit lines, their importance in the lending process and their main types are covered. Also, the dynamics of credit lines attracted under state guarantees in Uzbekistan in 2020-2024 are analyzed based on statistical data.

Kalit so'zlar: Keywords:

- ❖ xorijiy kredit liniyalari, tijorat banklari, kredit riski, valyuta riski, likvidlik riski, foiz stavkasi, SOFR, EURIBOR.
- ❖ foreign credit lines, commercial banks, credit risk, currency risk, liquidity risk, interest rate, SOFR, EURIBOR.

Kirish.

Xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish banklarning resurs bazasini kengaytirish va kreditlash jarayonini barqaror moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda xalqaro integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda banklar nafaqat ichki depozitlar hisobiga, balki xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklar tomonidan taqdim etiladigan kredit liniyalari orqali ham qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilmoqda. Bu esa kredit portfelining o'sishini ta'minlash bilan birga, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xorijiy kredit liniyalari banklar uchun nisbatan uzoq muddatli va yirik hajmdagi resurs manbai bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali banklar infratuzilma loyihalari, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ushbu resurslar xalqaro moliya bozorlaridagi ishonch darajasini oshirishga va banklarning kredit reytingini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biroq xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish jarayoni ma'lum risklar bilan ham bog'liq bo'lib, ular valyuta riski, foiz stavkasi o'zgarishi va tashqi moliyaviy sharoitlarga bog'liqlik kabi omillar orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli tijorat banklarida ushbu resurslardan samarali

foydalanish, ularni kreditlash jarayoniga optimal integratsiya qilish hamda risklarni to'g'ri boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xorijiy kredit liniyalarining korxonalar moliyaviy faoliyatiga ta'siri masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kredit liniyalari korxonalar uchun likvidlikni boshqarishning muhim vositasi hisoblanib, ularga zarurat tug'ilganda qo'shimcha moliyaviy resurslardan foydalanish imkonini beradi. Shu sababli kredit liniyalari korxonalarining pul mablag'larini boshqarish strategiyasida naqd pul zaxiralari muqobil manba sifatida qaraladi.

Kredit liniyalaridan foydalanish omillarini tadqiq qilgan A.Sufi korxonaning pul oqimlari barqaror bo'lganda kredit liniyalaridan foydalanish ehtimoli yuqori bo'lishini aniqlagan. Muallifning ta'kidlashicha, kredit liniyasiga ega korxonalar naqd pul mablag'larini katta hajmda saqlashga kamroq ehtiyoj sezadi [1]. Ushbu xulosalar kredit liniyalari va korxonalar likvidligi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Global moliyaviy inqiroz davrida AQSh va Yevropa korxonalarining likvidlikni boshqarish amaliyotini o'rgangan M. Campello, E.Giambona, J. Graham, va C. Harvey ham kredit liniyalari bilan naqd pul zaxiralari o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligini aniqlaganlar [2, 3]. Ularning fikricha, kredit liniyalari korxonalariga moliyaviy noaniqlik sharoitida likvidlikni saqlab qolish va operatsion faoliyatni uzluksiz davom ettirish imkonini beradi.

Xorijiy kredit liniyalarining investitsion faoliyatga ta'siri J. Berrospide va R. Meisenzahl tomonidan Lehman Brothers inqirozidan keyingi davr tahlil qilinish, kredit liniyalari orqali mablag'larni jalb qilish bilan kapital qo'yilmalar o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan [4]. Ayniqsa, inqiroz davrida kredit liniyalarining investitsion

faollikni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati yanada kuchaygan.

Y. Guney, A. Karpuz va N. Ozkan tomonidan Yevropaning 17 ta davlati misolida o'tkazilgan tadqiqot natijalari esa kredit liniyalari korxonalarining ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlagan. Mualliflar kredit liniyalari mavjudligi korxonalarining tadqiqot va ishlanmalar (R&D) xarajatlarini oshirishiga xizmat qilishini asoslashgan [5]. Mazkur tadqiqot xorijiy kredit liniyalari nafaqat korxonalar likvidligini ta'minlash, balki investitsion va innovatsion faollikni rag'batlantirishda ham muhim moliyaviy instrument ekanligini ko'rsatadi.

A.Boot, A.Thakor va G.Udell kredit liniyalari hamda bir martalik kreditlar (spot loans)ning kapital qo'yilmalarga ta'sirini qiyosiy tahlil qilib, kredit liniyalari korxonalariga investitsion qarorlarni yanada moslashuvchan amalga oshirish imkonini berishini asoslaganlar [6]. Shuningdek, P.Bolton, H.Chen va N.Wang kredit liniyalarining joriy etilishi korxonalarining pul mablag'lari zaxirasi, investitsiya hajmi va moliyaviy strategiyasida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirishini ta'kidlaydi [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish va ulardan foydalanish jarayonini tahlil qilishda tizimli yondashuv orqali xorijiy kredit liniyalarining bank kreditlash jarayonidagi o'rni va ularning iqtisodiy ahamiyati o'rganildi. Taqqoslama tahlil usuli yordamida 2020-2024-yillar davomida davlat kafolati ostida jalb qilingan kredit liniyalari dinamikasi tahlil qilindi hamda ularning o'zgarish tendensiyalari aniqlandi. Statistik tahlil asosida kredit hajmlarining yillar kesimidagi o'sish va pasayish ko'rsatkichlari baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorijiy kredit liniyalari - bu xorijiy banklar, xalqaro moliya institutlari, rivojlanish

agentliklari va boshqa chet el moliyaviy tashkilotlari tomonidan tijorat banklariga yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarga ma'lum maqsadlar uchun ajratiladigan moliyaviy resurslardir. Ushbu kredit liniyalari odatda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-

quvvatlash, eksport-import operatsiyalarini rivojlantirish hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini kreditlash uchun taqdim etiladi. Quyidagi 1-jadval tijorat banklarida xorijiy kredit liniyalarini jalb qilishning kreditlash jarayonidagi asosiy ahamiyatli yo'nalishlarini tizimli ravishda yoritadi.

1-jadval

Xorijiy kredit liniyalarining kreditlash jarayonidagi ahamiyati

Yo'nalish	Ahamiyati	Kreditlash jarayoniga ta'siri
Resurs bazasini kengaytirish	Xorijiy kredit liniyalari banklarning moliyaviy resurslarini oshiradi	Kredit ajratish hajmini kengaytiradi va yangi mijozlarni moliyalashtirish imkonini beradi
Uzoq muddatli moliyalashtirish	Nisbatan uzoq muddatli va barqaror resurs manbai hisoblanadi	Investitsion loyihalarni moliyalashtirishni osonlashtiradi
Foiz stavkasi afzalligi	Ko'pincha nisbatan past yoki barqaror stavkalarda jalb qilinadi	Kredit mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshiradi
Kredit portfeli diversifikatsiyasi	Turli manbalardan resurs jalb qilishni ta'minlaydi	Risklarni bir manbaga bog'lanib qolishdan himoya qiladi
Investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash	Yirik infratuzilma va biznes loyihalarini moliyalashtiradi	Kredit portfelinin sifatini va iqtisodiy samaradorligini oshiradi
Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish	Xalqaro moliya institutlari bilan aloqalarni mustahkamlaydi	Bankning reytingi va ishonchliligini oshiradi
Valyuta va foiz riski	Xorijiy valyuta va stavkalarga bog'liqlik mavjud	Risklarni boshqarish va xedjing mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi

Xorijiy kredit liniyalari tijorat banklarining resurs bazasini kengaytirish, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini shakllantirish va kreditlash hajmini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur mablag'lar ko'pincha nisbatan qulay foiz stavkalari va uzoq

muddatli shartlar asosida jalb qilinishi sababli banklarning investitsion va ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Quyidagi 2-jadvalda kredit liniyalarining asosiy turlari va ularning mohiyati keltirilgan.

2-jadval

Kredit liniyalari turlari

Tasniflash mezonlari	Kredit liniyasi turlari	Mohiyati
Qayta tiklanishiga ko'ra	Revolver kredit liniyasi	Ajratilgan limit doirasida qaytarilgan mablag'lardan kredit muddati davomida qayta foydalanish imkonini beruvchi kredit liniyasi.
	Non-revolver kredit liniyasi	Kredit mablag'i bir marta ajratiladi va qaytarilgandan so'ng undan qayta foydalanish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.
Muddati bo'yicha	Qisqa muddatli	Odatda 1 yilgacha bo'lgan muddatga ajratilib, aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qoplashga xizmat qiladi.
	O'rta muddatli	1 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga ajratilib, investitsion va ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishda qo'llaniladi.
	Uzoq muddatli	5 yildan ortiq muddatga ajratilib, yirik investitsion va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Subyektlariga ko'ra	<i>Banklararo kredit liniyalari</i>	<i>Bir bank tomonidan boshqa bankka resurslar ajratilishi orqali tashkil etiladigan kredit liniyalari.</i>
	<i>Hukumatlararo kredit liniyalari</i>	<i>Davlatlar yoki hukumatlararo bitimlar asosida iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar.</i>
	<i>Xalqaro moliya institutlari kredit liniyalari</i>	<i>Xalqaro moliya institutlari tomonidan tijorat banklari orqali iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyalashtirish uchun taqdim etiladigan mablag'lar.</i>
Maqsadiga ko'ra	<i>Investitsion kredit liniyalari</i>	<i>Asosiy vositalarni yaratish, modernizatsiya qilish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun ajratiladi.</i>
	<i>Aylanma mablag'larni to'ldirish kredit liniyalari</i>	<i>Korxonalarining joriy faoliyatini moliyalashtirish va aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qoplash uchun ajratiladi.</i>
	<i>Eksport-importni qo'llab-quvvatlash kredit liniyalari</i>	<i>Tashqi savdo operatsiyalarini moliyalashtirish, eksportni rag'batlantirish va import shartnomalarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.</i>

Kredit liniyalari qayta tiklanish xususiyati, muddati, subyektlari va maqsadiga ko'ra turli turlarga bo'linib, har biri bank kreditlash jarayonida o'ziga xos iqtisodiy vazifani bajaradi. Kredit liniyasidan foydalanish mexanizmi doirasida banklar uchun xarajatlar ikki asosiy komponent (o'zlashtirilgan va foydalanilmagan qismlar)ga bog'liq holda shakllanadi. Kredit liniyasi bo'yicha umumiy moliyaviy xarajatni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$C = (Lu * r) + (Ln * c) \quad (1)$$

Bunda:

C – kredit liniyasi bo'yicha jami xarajatlar;

L_u – amalda o'zlashtirilgan limit qismi;

r – o'zlashtirilgan qism uchun belgilangan foiz stavkasi;

L_n – o'zlashtirilmagan, lekin rezerv qilingan limit qismi;

c – majburiyat uchun komissiya stavkasi.

Ushbu formula kredit liniyasining qarz oluvchi uchun naqadar tejamkor yoki qimmat ekanligini baholash imkonini beradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda xorijiy kredit liniyalari asosida moliyaviy resurslarni jalb etish ko'lami sezilarli darajada kengayib bormoqda (3-jadval).

3-jadval

Tadbirkorlik va xo'jalik yurituvchi subyektlariga davlat kafolati ostida jalb qilingan xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilgan kreditlar [8]

Yillar	Kredit miqdori (mln. AQSh dollari)
2020	271,0
2021	286,0
2022	222,1
2023	448,1
2024	196,1

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024-yillar davomida davlat kafolati ostida jalb qilingan xorijiy kredit liniyalari hisobidan tadbirkorlik va xo'jalik yurituvchi subyektlarga ajratilgan kreditlar hajmi o'zgaruvchan dinamikani namoyon etgan. Xususan, 2020-yilda 271,0 mln AQSh dollari,

2021-yilda 286,0 mln AQSh dollari, 2022-yilda 222,1 mln AQSh dollari, 2023-yilda esa keskin o'sib 448,1 mln AQSh dollarini tashkil etgan. 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 196,1 mln AQSh dollarigacha kamaygan. Mazkur tebranishlar xorijiy kredit liniyalarining asosan investitsion loyihalar xususiyatiga ega ekanligi, ularning

ajratilishi loyiha bosqichlari va moliyalashtirish grafigiga bog'liqligi, shuningdek makroiqtisodiy va tashqi moliyaviy sharoitlar bilan izohlanadi. Umuman olganda, ushbu kreditlar iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Tijorat banklarida xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish va ulardan foydalanish jarayoni bir qator moliyaviy risklar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning samarali boshqarilishi bank barqarorligi va kredit portfeli sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonda asosiy risk turlari sifatida valyuta riski, kredit riski, likvidlik riski va foiz stavkasi riski ajratib ko'rsatiladi.

Valyuta riski xorijiy valyutada jalb qilingan kredit liniyalari bo'yicha eng muhim risklardan biri hisoblanadi. Milliy valyuta kursining o'zgarishi natijasida qarz xizmat ko'rsatish xarajatlari oshishi mumkin bo'lib, bu qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, daromadi milliy valyutada shakllanadigan mijozlar uchun devalvatsiya holatlari kredit yukining ortishiga olib keladi va muammoli kreditlar (NPL) shakllanish ehtimolini kuchaytiradi.

Kredit riski esa qarz oluvchilarning o'z kredit majburiyatlarini belgilangan muddatda va to'liq bajarolmasligi bilan bog'liq bo'lib, u kredit liniyalaridan foydalanish jarayonida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kredit portfelining tez kengayishi, yangi mijozlarning jalb qilinishi hamda iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi kredit riskining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli kreditga layoqatlilikni chuqur tahlil qilish va doimiy monitoring tizimlarini joriy etish muhimdir.

Likvidlik riski bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, xorijiy kredit liniyalari qaytarilish jadvali va ichki resurslar oqimi o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga kelishi mumkin. Agar bankda yetarli likvid aktivlar mavjud bo'lmasa, tashqi

qarzlarni qaytarish yoki yangi kreditlarni moliyalashtirishda muammolar yuzaga keladi.

Foiz stavkasi riski esa xalqaro moliya bozorlaridagi SOFR, EURIBOR kabi benchmark stavkalarining o'zgarishi natijasida bank xarajatlarning oshishi bilan izohlanadi. Suzuvchi foiz stavkalari asosida jalb qilingan kredit liniyalari sharoitida foizlarning o'sishi bankning umumiy xarajat yukini oshiradi hamda kredit mahsulotlarining rentabelligiga ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, mazkur risklar o'zaro bog'liq bo'lib, ularni kompleks boshqarish xorijiy kredit liniyalaridan samarali foydalanish va bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish banklarning resurs bazasini kengaytirish, uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish hamda kreditlash hajmini barqaror rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu moliyaviy instrumentlar investitsion loyihalarni moliyalashtirish, kichik biznes va real sektorni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini kreditlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda 2020-2024-yillar davomida xorijiy kredit liniyalari asosida ajratilgan kreditlar dinamikasi ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini, biroq ularning hajmi loyiha bosqichlari va tashqi moliyaviy sharoitlarga bog'liq ravishda o'zgaruvchan ekanligini ko'rsatadi. Bu holat kredit resurslarining samarali taqsimlanishi va boshqarilishi zarurligini anglatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, xorijiy kredit liniyalaridan foydalanish jarayoni valyuta, kredit, likvidlik va foiz stavkasi risklari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi

ahamiyatga ega. Ayniqsa, valyuta kurslarining o'zgarishi va suzuvchi foiz stavkalari bank xarajatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, xorijiy kredit liniyalari tijorat banklari kreditlash faoliyatining muhim

moliyaviy instrumenti bo'lib, ularni jalb qilish va samarali boshqarish bank tizimi barqarorligi hamda iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sufi, A. (2009). "Bank lines of credit in corporate finance: An empirical analysis," *The Review of Financial Studies*, 22(3): 1057-1088.
2. Campello, M., Giambona, E., Graham, J. R., and Harvey, C. R. (2011). "Liquidity management and corporate investment during a financial crisis," *The Review of Financial Studies*, 24(6): 1944-1979.
3. Campello, M., Giambona, E., Graham, J. R., and Harvey, C. R. (2012). "Access to liquidity and corporate investment in Europe during the financial crisis," *Review of Finance*, 16(2): 323-346.
4. Berrospide, Jose M. and Meisenzahl, R. (2015). "The real effects of credit line drawdowns," *Finance and Economic Discussion Series 2015-007, Board of Governors of the Federal Reserve System*.
5. Guney, Y., Karpuz, A., and Ozkan, N. (2017). "R&D investments and credit lines," *Journal of Corporate Finance*, 46: 261-283.
6. Boot, A., Thakor, A. V., and Udell, G. F. (1987). "Competition, risk neutrality and loan commitments," *Journal of Banking and Finance*, 11(3): 449-471.
7. Bolton, P., Chen, H., and Wang, N. (2011). "A unified theory of Tobin's q, corporate investment, financing, and risk management," *The Journal of Finance*, 66(5): 1545-1578.
8. <https://cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb sahifasi ma'lumotlari.